



OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI PERFECT-UNIVERSITY

“GENDER TENGLIGI: XALQARO TAJRIBA VA MILLIY AMALIYOT” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

AXBOROT XATI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrda "Gender tenglik, xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquqlarni ta'minlash hamda ularni ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-401-sonli Farmoni va Vazirlar Mahkamasining "Gender tenglik siyosatini mustahkamlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 447-sonli Qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Perfect-Universityda hamkor tashkilotlar bilan birgalikda **2026-yil 11-fevral** kuni "**Gender tengligi: xalqaro tajriba va milliy amaliyot**" mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi o'tkazilmoqda.

Ilmiy-amaliy konferensiyaning maqsad va vazifalari:

- ✓ *Gender tengligini ta'minlash bo'yicha xalqaro ilg'or tajribalarni o'rganish va ularni milliy amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini ochib berish;*
- ✓ *Xalqaro tajribani o'rganish va muvaffaqiyatli gender strategiyalarini tahlil qilish;*
- ✓ *Zavonaviy jamiyatda shaxsning rivojlanishidagi gender xususiyatlarini ijtimoiylashuvini tahlil qilish;*
- ✓ *Gender mojarosi - gender qadriyatlari, rollari va gender munosabatlarini idrok etish sohasidagi manfaatlar yoki maqsadlar to'qnashuvi masalalarini tahlil qilish;*
- ✓ *Milliy amaliyotni baholash va gender tengligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni muhokama qilish;*
- ✓ *Soha mutaxassisleri va tashkilotlar o'rtasida bilim va tajriba almashishni rag'batlantirish;*
- ✓ *Gender tengligini oshirishga qaratilgan tavsiyalar va amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqish;*
- ✓ *Jamiyatda gender masalalariga e'tibor qaratish va inklyuziv muhitni rivojlantirish.*

Konferensiyaga quyidagi yo'nalishlar bo'yicha maqolalar qabul qilinadi:

1. Gender tengligi va huquqiy kafolatlar, xalqaro tajriba: ayollar huquqlari, siyosiy faollik va zo‘ravonlikka qarshi kurash mexanizmlari.
2. Mahalla institutlari faoliyatida gender tengligi milliy amaliyot sifatida.
3. Iqtisodiy imkoniyatlar: mehnat bozorida ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash.
4. Psixologik qarashlar: gender munosabatlarini idrok etish sohasidagi manfaatlar va maqsadlar to‘qnashuvi masalalari.
5. Sport, sog‘liqni saqlash, ta‘lim, fan va ilmiy tadqiqotlar integratsiyasida gender masalalari.
6. Yoshlar orasida gender madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish masalalari.

Maqolalar quyidagi talablarga javob berishi shart:

- Maqolalar konferensiya yo‘nalishlariga oid dolzarb mavzularda, ilmiy tahlil va tugallangan fikrlar asosida, amaliy tavsiyalar bilan taqdim etilishi lozim;

- Word matn redaktorida Times New Roman 14 pt o‘lchamli shrifti bilan 1,5 intervalda, qog‘oz o‘lchovi A4 210x197 mm; Matn maydoni yuqoridan va pastdan 2 sm, o‘ngdan 1,5 sm, chapdan 3 sm.

- Maqola mavzusi bosh harflarda va qoraytirilgan holda yozilishi, keying qatordan muallifning ismi, familiyasi va sharifi, ish joyi, lavozimi, elektron manzili va telefon raqami ko‘rsatiladi.

- Maqola annotatsiyasi va kalit so‘zlar (kamida 7 ta) 3 tilda (o‘zbek, rus, ingliz) berilishi shart.

- Foydalanilgan adabiyotlar kamida 3-4 ta adabiyotni tashkil etishi zarur.

- Maqolaga havola (snoska)lar [1,2...] ko‘rinishida va maqola so‘ngida “Foydalanilgan adabiyotlar” bandiga adabiyot sifatida ketma-ketlikda, tartib bilan havola raqami ko‘rsatilishi kerak.

- Maqoladagi ma‘lumot va dalillarning aniqligi, to‘g‘riligi va ko‘chirmakashlikka yo‘l qo‘yilmaganligiga muallif javobgardir.

- Mavzuga tegishli bo‘lmagan, tahrir qilinmagan hamda imlo xatolari bilan taqdim etilgan maqolalar ilmiy to‘plamga kiritilmaydi.

- Maqolalar o‘zbek, rus va ingliz tillarida qabul qilinadi.

Fayl nomlari muallifning familiyasi hamda yo‘nalish raqami bilan nomlanishi maqsadga muvofiq (masalan: G.Shamsiyeva 1-sho‘ba)

Anjuman materiallarining indekslanishi:

Konferensiya materiallari **Google Scholar** xalqaro ma‘lumotlar bazasida indekslanadi va **DOI raqami** beriladi. Har bir muallifga elektron shaklda sertifikat, indekslangan maqolaning pdf varianti taqdim etiladi. Anjuman materiallari to‘plam holatda elektron va bosma nashr etiladi.

